O'YIN TEXNOLOGIYALARINING BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQ RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Jaxbaraliyeva Noilaxon Patidin qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-kurs magistranti

Qabul qilindi: 30.10.2025
Ko'rib chiqildi: 31.10.2025
Tasdiqlandi: 01.11.2025

Kalit so'zlar:
nutq, nutqdagi nuqsonlar, nutq terapiyasi amaliyoti, og'zaki va yozma nutq, o'yin texnologiyalari ta'siri.

Annotatsiya. Mazkur tezisda Boshlang'ich ta'lim tashkilotlarida bolalr nutqini rivojlantirish jarayonini samaradorligini oshirish haqida ma'lumot beradi. Bolalar nutqi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy, ma'daniy intelektual fazilatlarini rivojlantirishlarini muhim vosita sifatida xizmat qilish haqida axborat beradi.

Kirish. O'yin texnologiyalari boshlang'ich ta'limda asosiy o'rin egallaydi. O' yin texnologiyalari orqali bolalar nutqini rivojlantirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda asosiy o'rinni Didaktik o'yinlar tashkil etadi

Didaktik o'yinlar qoidali o'yinlar jumlasiga kiradi va rolli o'yinlarni rivojlantirish predmeti hisoblanadi. Bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishini belgilaydigon harakatlarni bajarishga qaratilgan aqliy va irodaviy urinishini tashkil etadi. Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari – tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazxolarni takomillashtiradi va shu bilan birga o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda katta yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida bolalarni o'qitishda, tarbiyalash va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin paytida bolaning ijobiy ish faoliyatini, nutqini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini, takomillashritadi. O'yinda o'quvchilar o'zlari sezmagan holda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar bu esa o'z navbatida nutqidagi ba'zi bir nuqsonlarni bartaraf bo'lishida katta yordam beradi.

Nutqdagi nuqsonlar bartaraf bo'lish bilan birga o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi sezilarli darajada rivojlanadi.

O'yinlarga qo'yiladigon ta'lablar xam mavjud;

1. O'yinlar o'quv predmetlari bo'yicha dastur materialiga muvofiq yo'sinda tanlanishi lozim.
2. Didaktik o'yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo'yicha ma'lum ta'lablar qo'yiladigon tartibda ishlab chiqarilishi kerak.
3. O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uning maqsadini yaqqol aniqlashga bog'liq. Chunki bunda o'quvchilarning fikrini maqsadli yo'nalishga solish, ukarning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug'iladi.

4. O'yinlarni tanlashda ma'lum bir izchillikka rioya qilish xam zarur. Mazmunan qiyin o'yinlardan oldin osonroq o'yinlarni o'tkazib, o'quvchilarni navbatdagi o'yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashda muayyanlashtirush, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta sekin murakkablashtitib boorish shart.

5. Har bir o'tkaziladigon o'yinni qoidasini tashkil etishni tuzish va ishlab chiqishda o'quvchchilarning o'ziga xos xuxusiyatlarini, ularning turli (bo'sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarni hisobga olish kerak.

6. O'yinlarning qoidalari sodda, aniq bo'lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.

7. Har bir o'quvchi butun o'yin jarayonida faol ishtirok etishi, o'z navbatini uzoq kutish o'yinga qiziqishini susaytirishga olib kelishini unutmasligi lozim.

8. Har bir o'yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

Yuqoridagi qoidalarga amal qilgan holatda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'yin tashkil qilsa turli xildagi muammoli vaziyatlar kelib chiqmaydi, va shu o'rinda xar bir o'yin bolaning yoshiga qarab tanlanadi. Shundagina ularning nutqida va ijobiy fikrlashida o'sish yuzaga keladi. Nutq rivojlanadi.

Bolalarning barcha o'yinlari o'ziga xos jozibaga ega va shuning uchun ular o'zgacha ishtiyoq bilan o'ynaydilar. O'yin bolalarning organizimida katta o'zgarishlar ro'y berishiga xam sabab bo'ladi. O'yinda vujudga keladgon vaziyatlar bolalarda turli masalalarni tezkorlik bilan hal etishni ta'lab etadi. Shunday paytlarda bola o'zining barcha imkoniyatlarini ishga soladi, bu xolatdan chiqib ketishga intiladi.
Ma'lumki bolalar odatda jim o'tira olmaydilar va doimo harakatda bo'ladilar. O'yin bolalarning tabiy hamrohi bo'lib, ularga mamnunlik va quvonch baxsh etadi. Bolalar o'yin orqali dunyoni, tevarak atrofni biladilar, mehnat qilishni o'rganadilar, ya'ni tarbiyalanadilar. Shu bilan birgalikda bolalarning nutqi sezilarli darajada rivojlanadi. Bir biri bilan o'yin orqali muloqot qiladi, fikr almashadi, o,zlarining fikrlash doirasida ayrim muammolarni xal etishga xarakat qiladi. Didaktik o'yinlardan tashqari boshlang'ich ta'lim tarbiyalanuvchilari turli hildagi xalq o'yinlaridan xam foydalansa also zarar qilmaydi. Ko'p xollarda fanga oid o'yinlar o'quvchilarni zeriktirib qo'yishi xam mumkin, shu xolatlarda qiziqarli xalq o'yinlari o'qituvchilarning dars jarayonida qo'llashda yaqindan yordam beradi. Bu orqali bola o'ziga ishonch hissini oladi, muloqot doirasini kengaytiradi va albatta og'zaki nutqi yanada shakillanadi, chunki o'yinlarada bolalar turli xil sherlardan matn masallardan foydalanadilar, xar xil hayvonlar obrazini shakillantiradilar, shu orqali bolalar fikr almashadi. Nima yaxshi, nima yomon, qanday xarakter egasi bo'lish kerak yoki kerak emas ekanliklarini bilib oladilar. Bunday o'yinlarga misol qilib didaktik o;yinlardan ''Bilag'on bolajon'',

''Oxirgi harfga sher aytish'', ''Nomimni top'', '' Aql charxi'', ''Yulduzcha'' kabi o'yinlarni misol qilib aytishimiz mumkin.

Bolalar o'yinda o'zlarini erkin tutadilar va o'zlariga juda yuqori talablarni qo'yadilar, qiyin vaziyatlardan o'zalaricha chiqishga xarakat qiladilar. Tabiiyki, o'zicha harakat qilgan, o'ziga ishongan odam har qanday qiyinchiliklarni, mushkullarni yengishga yordam beradi. O'yinda bolalar muloqot qilish orqali nutqini o'zlari bilmagan holatda rivojlantitadi, nutqining o'sishiga yordam beradi. Nutqdagi kamchiliklar o'yin orqali bartaraf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent
2. O'zbekiston Respubikasining,,Ta'lim to'g'risidagi qonuni ''. 1997-yil
3. B. To'xliyev, M Shamsiyev T. Ziyadova,,O'zbek tili o'qitish metodikasi'',,Yangi asr avlodi '' Nashriyoti, 2006-yil
4. A. G'ulomov, M, Qodirov ,,Ona tili o'qitish metodikasi'' 1995-yil
5. B. Adizov, A.Xamroyev,, Ona tili didaktikasi'' Yangi avlod nashriyoti 1975-yil
6. A. G'ulomov, M. Abduraimov, M. Qodirov.,, Ona tili uchun darslik'' 2000-yil